



AXBOROTNING JAMIYATDA TUTGAN O’RNI VA AHAMIYATI

Igamberdiyev Doniyor Saidxanovich

Andijon davlat pedagogika instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Mashrabova Sarvinoz Mo’minjon qizi

Xabibullayeva Mohigul To’lqinjon qizi

Komilova Muslima Ilg’orjon qizi

Fizika yo’nalishi 101-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatning hayotida axborotning qay darajada ro’l o’ynayotgani va uning ahamiyati haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Axborotlashgan jamiyat, axborot, ijtimoiy tarmoq, vazifa va funksiyalar, Internet.

Abstract: This article discusses the role and importance of information in the life of an information society.

Key words: Information society, information, social network, tasks and functions, Internet.

Аннотация: В данной статье говорится о роли и значении информации в жизни информационного общества.

Ключевые слова: Информационное общество, информация, социальная сеть, задачи и функции, Интернет.

Kirish:

Hammamizga ma’lumki, 21-asr “Texnologiyalar asri” deb yuritiladi. Bu davrning ko’p qismi virtual dunyoga asoslangan. Ijtimoiy tarmoqlar, internet kabi vositalar axborot



majmuosi hisoblanib, axborotlashgan jamiyatning asosiy axborot manbayiga aylanib bo'lgan. Axborot asri sifatida talqin etilayotgan yangi yuz yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan Internetning shiddat bilan rivojlanib borayotganligi insoniyat taraqqiyotiga yangicha ko'rinish va mohiyat ato qildi. Davlat va jamiyat rivojlanishining mazkur yangicha shakli “elektron” borliq ko'rinishida xarakterlanib, uning kelajagini aloqa tarmoqlari orqali butun dunyoni yagona axborot makoniga aylantirayotgan millionlab “baytlar va bitlar” hal qilmoqda. Internet davlat va xalqlar o'rtasidagi axborot almashishni misli ko'rilmagan darajada tezlashtirdi, dunyoni insoniyat uchun tom ma'nodagi “yagona global makonga aylantirdi”

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining aloqa va axborot kommunikatsiya texnologiyalari masalalari bo'yicha 2003 yilning 10 aprelida bo'lib o'tgan yig'ilishi natijalariga ko'ra, 2003 yilning boshiga kelib Internetdagi Uz. Milliy hududida qayd qilingan saytlar soni 12,5 foizga o'sib, 650 taga etgan. Internetdan tez-tez foydalanuvchilar soni 50 ming kishi atrofida bo'lib, ulardan 10 ming kishigina jahon axborot tarmog'idan muttasil foydalanishadi.[1]

“Axborotlashgan jamiyat nima?” degan savolga javob beradigan bo'lsak, bu zamonaviy xalqlar jamiyatlarida, ayniqsa ikkinchi jahon urishidan keyin axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va keng qo'llanishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va madaniy o'zgarishlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan keng atama.[2] Axborotlashgan jamiyatning kelib chiqishi ham albatta, axborotga bo'lgan ehtiyojimiz sabab vujudga kelgan.

Axborotga bo'lgan ehtiyojimiz kun sayin ortib bormoqda. Hali internet tarmog'i yurtimizda rivojlanmagan paytlarda ham gazeta va jurnallardan axborot almashinishi vositasi sifatida foydalanib kelishgan. Hozirgi vaqtga kelib ular o'z o'rnini telefon, televizor kabi ommaviy axborot vositalariga bo'shatib beryapti. Bu zamonga qarab oladigan bo'lsak, odatiy tus olmoqda. Chunki, zamonaviy 21-asr texnologiyalar qamrovi ostida qolgan. Axborot ham albatta, zamon bilan birga rivojlanmoqda. Ibtidoiy davrda ham axborotga bo'lgan ehtiyojni anglashimiz mumkin. O'rta asrlarda ibtidoiy to'daga mansub shaxslarning qoya toshlar va g'orlarga chizgan yozuv va rasmlarida bir-biri bilan



muloqot almashinish, keyingi avlodga turmush tarzini yetkazib berishga harakatini anglashimiz qiyin emas albatta. “Bu nimani anglatadi” degan savolga javob beradigan bo'lsak, bu axborotning almashinishi va uning o'zi insonlar bilan birgalikda uzviy bog'lanib, birgalikda rivojlanib borar ekan. Axborotning o'rni inson hayotida juda muhim ro'l o'ynashini shundan bilishimiz ham mumkin. Albatta, har bir inson atrof-muhit bilan muloqot qilishga harakat qiladi, ma'lumot oladi yoki ma'lumot beradi. Buning o'zi ham axborotning bir turidir. Axborot jamiyatda bo'layotgan voqealikdan xabardor bo'lishim bilan birga muloqot almashinishimizni ham anglatadi. Axborotning jamiyatdagi o'rnini shu xususiyati bilan o'lchaydigan bo'lsak, uning ahamiyatini anglashimiz, o'rnini qay darajada ekanligini anglay olamiz.

Axborot almashinuvi qanchalik muhim va o'zicha mustaqil hodisa bo'lib tuyulmasin, bari bir u hamisha o'zaro ta'sir ko'rsatish mexanizmi bo'lib qolaveradi. Buni ijtimoiy o'zaro ta'sirga nisbatan oladigan bo'lsak, har qanday axborot almashinuvi kishilar, jamoalar yoki ijtimoiy guruhlarini ma'naviy va intellektual takomillashtirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi, xolos.

1. Axborot almashinuvi mexanizmi amal qilishining eng muhim natijasi sifatida shuni keltirish mumkinki, muloqotda ishtirok etuvchilarning tuzilmaviy hamda kontent (mazmuniy) parametrlari bir-biriga mos ravishda o'zgaradi, ular o'zaro muvofiqlashib turadi.
2. Axborot almashinuvining regulativ (tartibga solish) funksiyasi mavjudligini uning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Buning natijasida muloqotga kirishuvchilar o'rtasida ma'rifiy funksiya ishga tushsa, ong, bilim va dunyoqarashni maqsadga muvofiq tarzda shakllantirib borish jarayoni tartibga solinadi.
3. Axborot almashinuvining o'zaro munosabatni dolzarblashtirish xususiyati ham mavjud. Ma'lumki, munosabat o'zaro ta'sirning sharti, alomatidir. Muloqot vaqtida ishtirokchilar almashinayotgan axborot, ularning o'ziga xos ifodalanishi oqibatida individlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida munosabatlar o'zgarishi, ya'ni rivojlanishi yoki susayishi mumkin.
4. Axborot almashinuvida indikativlik xususiyati ham bor. Bu degani o'zaro ta'sirning, hech bo'lmaganda, bir komponenti haqida ma'lumotlarga ega bo'linsa, boshqalari haqida



ham ishonch bilan fikr yuritish, ularni qaerda va qanday qilib izlash kerakligini hisoblab chiqishga imkon beradi. Jumladan, ijtimoiy tashkillashtirish va boshqarishning har qanday hodisasining shakli qanchalik noodatiy bo'lishiga qaramay, axborot almashinuvi haqida fikr yuritishga asos bo'ladi.

Xulosa: Axborotning jamiyatdagi o'rni hozirgi vaqtda ham o'zgarmay kelmoqda. Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi, uning mazmuni ham aynan shu tushunchaga borib taqaladi. Shu bilan birgalikda, axborot jamiyat suyanadigan tayanchga aylanib bo'lishga ulgurgan. Demak, axborotning jamiyat hayotida tutgan o'rnini o'lchash mumkin emas ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Суви Туоминен, Сиркку Котилайнен, Анниина Лундвалл., Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жихатлари. Ўқув-амалий қўлланма. - Extremum-press, 2017-142.6
2. [„Description Of Information Society,“](#)